BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA VARIATIV TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o‘g‘li,
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy fanlarni o‘qitishda ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish asosida o‘qitishni takomillashtirish, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi hodisa va jarayonlar o‘zgarishlari mazmun-mohiyatini anglash, mazkur o‘quv fanlari mazmunidagi ilmiy tushunchalarni yaxlit tasavvur qilish, ularni amaliyotga qo‘llash orqali o‘quvchilarda ongli munosabatni shakllantirish jihatlari nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: Invariant, variativ, tushunchalar, boshlang‘ich sinf, o‘quvchilar, o‘qitish, shakllantirish integratsiya, dars, ta’lim-tarbiya, innovatsiya, fanlararo aloqadorlik, muammoli vaziyat, ilmiy tushunchalar, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, o‘qitish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlarni ham keng rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Negaki, bu demokratik, insonparvarlik va jamiyat qurishning muhim omillaridandir. Xalq ta’limi tizimida uzluksizlik yuzaga keldi va u endilikda zamonaviy innovatsion pedagogik va integratsion ta’lim asosida takomillashtirilmoqda.

Darhaqiqat, boshlang‘ich sinflarda ta’lim salohiyatini yuqori darajaga ko‘tarish muhim ahamiyat kasb etgan holda, kelajagimizning taraqqiyoti ta’limning poydevori bo‘lgan boshlang‘ich ta’limda ilm olayotgan o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy jihatdan mustahkam tarbiyalanishi, barkamol avlod bo‘lib yetishishiga ko‘p jihatdan bog‘liq hisoblanadi.

Maktab yoshidagi o‘quvchilarni komil inson darajasiga ko‘tarishga intilish, ma’naviyat sarchashmalaridan bahramand qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash davr talabi. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi ham yetuk pedagogik mahoratga ega bo‘lishi, yuksak insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etmog‘i lozim.

Bugungi kunda ta’lim - tarbiyaning ayni paytdagi zamonaviy bosqichida zamonaviy ta’lim texnologiyalari, integratsiya va innovatsiyalar amaliyotda keng qo‘llanilishi orqali o‘qituvchining ishlash tizimi ham tubdan o‘zgarmoqda.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda tabiiy fanlarning roli katta. Shunga ko‘ra, murg‘ak qalblarga ta’lim-tarbiya berayotgan o‘qituvchilarning oldilarida eng muhim vazifalaridan biri ham o‘quvchilarning tabiat go‘zalliklarini ko‘ra bilishi, uni sevishi, tabiatda yuz berayotgan voqea - hodisalar haqida to‘g‘ri tushunchaga ega bo‘lishi, qolaversa tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Jumladan, uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda invariant va variativ didaktik funksiyalar alohida o‘rganilib chiqiladi. Avvalo, variativ - bir xil narsaning turli xil namoyishlari (o‘zgartirish, amalga oshirish va xilma-xillik), variativ-bu bir xil obyektni o‘ziga xos modifikatsiyasidan mavhum ravishda kiritish, variantlarda shakllangan va har bir variativga xos bo‘lgan obyektlar sinfining umumiy xususiyatlarini aks ettirishdir. Uzluksiz ta’lim jarayonida o‘quvchilarda tabiatga oid ilk variativ tushunchalarni shakllantirishda ta’limni formal o‘qitishdan holi bo‘lgan holda, ta’lim mazmunini har xillashtirish va o‘zgartirishga erishish ekanligi anglanadi.

Invariant didaktik funksiyalar variativ didaktik funksiyaning aksi bo‘lib, invariant so‘zi fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, “invariant” - o‘zgarmas degan ma’noni bildiradi. Ma’lum bir turdagi o‘zgarishlar davrida o‘zgarmas bo‘lib qoladigan xuxusiyatga ega tushunchalar invariant deyiladi. O‘quvchilarda tabiatga oid ilk invariant tushunchalarni shakllantirishda ta’lim mazmunining bir xillilikka erishishi. Mazkur didaktik funksiyalar bo‘yicha ta’lim mazmuni hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, tadqiqot olib borilganda ularning o‘xshash tomonlari, qarama-qarshiligi, kamchiligi va yutuqlariga e’tibor qaratiladi.

Invariantning har qanday talqini umumiy, o‘zgarmas, har xil variantlarda mavjud bo‘lgan narsaning mavjudligini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun invariant variantlarning barchasiga xos bo‘lgan va asl ma’no bilan birlashtirilgan, boshqa tillarga tarjima qilingan o‘zgarishsiz qoladigan, umumiy narsa sifatida tushuniladi.

Invariantlar variativlar tomonidan shakllantirilgan va har bir variativga xos bo‘lgan obyektlar sinfining umumiy xususiyatlarini aks ettiradigan, o‘ziga xos belgilanishidir. Invariant alohida obyekt sifatida mavjud emas. Invariantlar variativlar bilan hosil qilingan obyektlar sinfining umumiy xususiyatlarini aks ettiradi.

Ta’lim mazmuni jihatidan uzluksiz o‘quv jarayonida o‘quvchilarda tabiatga oid ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishning quyidagi darajalarini ko‘rish mumkin:

umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, professonal ta’lim va oliy ta’lim;

DTS va Milliy o‘quv dasturlari asosida har bir o‘quv fani yuzasidan beriladigan ta’lim-tarbiyaning invariant va variativligi;

tabiatga oid ilk invariant va variativ tushunchalarning bir va har xilliligi;

uzluksiz ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tabiatga oid ilk invariant va variativ tushunchalarning shakllari hamda uslublari.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy fanlarni o‘qitishda ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishning quydagi darajalarini ko‘rsatish mumkin:

o‘quvchining biologik kelib chiqishi;

tabiiy muhitning tasirchanlik holatida bir va har xillilik;

uzluksiz ta’lim muassasalari sharoitlarining invariant va variativliligi;

o‘quvchilarning qiziqishlarida bir va har xillilik.

Shunga muvofiq o‘qituvchi darsga tayyorlana turib, o‘quv dasturi va metodik ko‘rgazmalarga tayanib, mazkur darsda qanday asosiy tushunchalar, o‘quv va ko‘nikmalar hosil qilishni, qanday tarbiyaviy g‘oyalar o‘quvchilar ongiga singdirilishini, o‘quvchilarning idrokiy qiziqishlarini qondirishga qaysi yo‘l bilan yordam berish lozimligini aks ettiradi.

O‘qituvchining diqqati o‘quvchilarga dunyodagi borliq, avvalo real hayot haqida, ya’ni ularning o‘ziga xos xususiyati va qonuniyatlari asosida rivojlantitishdir, shuningdek, ularda doimiy o‘zgarish va rivojlanish asosida har bir dars mavzusi mazmuniga muvofiq tarzda oydinlashtirib boriladi. Kundalik darslar jarayonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga estetik tarbiya berish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga oid ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishda har bir o‘qituvchining psixologik xususiyatlarini: tanib olish, eslash, yod olish, fikrlarni tinglash, diqqatni mavjudligini, irodasi va yaqin maqsadlar qo‘ya olishini, hissiy faolligini baholay olishi lozim.

Adabiyotlar

1. Ahliddinov R. Hozirgi bosqichda pedagogik boshqaruvning dolzarb muammolari //Respublika ilmiy-amaliy konf. mat.-T.: O‘zPFITI, 2002. - 46 b.

2. Valixonov M.N.Tabiatshunoslikning zamonaviy konsepsiyasi. T.: 2003. 120 b.

3. Vahobov M.M. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish: p.f.d., diss. - Toshkent, 2016. -244 b.

4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 1999. - 30 b.

5. Jo‘rayyeva S. “Shaxsning kasbiy shakllanishiga bag‘ishlangan psixologik g‘oyalar va pedagogik faoliyatning psixologik diagnostikasi” // Maktab va hayot. - 2020 2-son.- B. 28.

6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - Toshkent: Iste’dod, 2008. - 180 b.

7. Nuritdinova M.I. Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi. T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2005. - 240 b.

8. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: psix.fan dok. diss. -T., 2005.- 391 b.

WORDLY KNOWLEDGE